

## DOSTONLARDA AYOLLARR OBRAZI

O'rinova Sarvinoz Hakim qizi

Termez iqtisodiyot va serves universiteti.

Ergasheva Rayxon O'tkirovna

Ilmiy rahbar. TISU o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18245193>

**Annatatsiya.** Maqolada dostonlarda ayollar obrazida ayollarni salbiy va ijobiy hayot yo'laridan foydalanamiz.

**Kalit so'zi:** Sadoqat, matonat, vafodorlik, mehr -shavqat, sevgi.

## THE IMAGE OF WOMEN IN EPICS

**Abstract.** In the article, we will explore the positive and negative life paths of women through their portrayal in epics.

**Keyword:** Loyalty, courage, devotion, compassion, love.

## ОБРАЗ ЖЕНЩИН В ЭПОСАХ

**Аннотация.** В статье мы рассмотрим использование положительных и отрицательных жизненных путей женщин через их образы в эпосах.

**Ключевое слово:** Верность, мужество, преданность, сострадание, любовь. Образ женщин в эпосах.

O'zbek xalq og'izaki ijodidagi dostonlarda ayollar obrazi juda muhim rol o'ynagan.

Dostonlarda ayollar obraziga e'tbor qaratilsa butun bir xalq ayollar sevgisi, sadoqati, vafoligi, matonati, mehr - shavqati namoyon bo'ladi. "Alpomish" dostonida Barchini sadoqati, vafodorligi, mehr-shavqatligi o'zgacha berilgan. Barchin o'z yurtidan kechib musofirlikda o'z shartlarini qo'ydi, undagi jasurlik dostonida ayollarni matonati o'zini himoya qilish aks etirilgan.

Barchin to'qson Alpga shart qoyadigan payti Barchinning hayoliga Alpomishga bergan vadasi esiga tushadi. Sevgan yori Alpomishga habar bermoqchi bo'ladi va unga xat yo'laydi va elchi yuboradi elchi to'g'ri Boybo'rini oldiga boradi buni ko'rgan Boybo'ri elchilarga Alpomishga xatni ko'rsatmasligini aytadi, ana endi Alpomishning singlisi Qaldirg'ochoyim mana shu yerida dostoning asosiy nuqtasi ya'ni qarindoshiga nisbatan mehr-shavqatga vafolikka e'tibor bering.

Kim olmoqchi bo'lsa meni,

Ot minib kelmasin bekor.

Qirq kunlik yo'lda chang solib, [1;132-b]

"Malikai ayyor" dostonida qizning qushga aylanishi va unga erishish qiyin ekanligi berilgan. Avazxon malikaga erishguncha qancha yo'larni bosib o'tgan. Avazxon o'zi otasi uchun boradi, ammo malikani ko'rganda uni ham ishq tushadi. Bu yerda ayolning jozibaligi, maftunkorligi, xurluqo ekanligi tasvirlangan. Haqiqatdan ham ayollarga berilgan tarif eng chiroyli tariflardandir. Masalan qadimda erlari janga ketishgan va ayollar oila zimmasini olgan ular farzand tarbiyasini, qornini to'ydirish ayol zimmasida bo'lgan. Bu dostoniga nima aloqasi bor deb o'ylasayiz dostonlar ham insonlar hayotidan olingan bo'lib. Ayollarning yovga yengilmasligi, sadoqati aks etadi. Bo'lsa shunday bo'lar, bir o'zbek ayoli. Men ayollar deganda o'zidan kechish deganini tushunaman, Masalan: onamizni olaylik, bizni dunyoga keltirishi o'zidan kechish degani emasmi?

Ey go'r o'g'li, ko'zimning nuri, qalbimning hushligi,

Senga yetdim men osmonlardan yurgingga shodlik olib

Ey go'zal Malika, yuragimning baxti, ko'zimning nuri  
Seni kelishing meni hayratga soldi, quvonchim cheksiz bo'ldi.  
Bizning yo'limiz uzun, mashaqqatli, lekin birga bo'lsak,  
Har qiyinchilikni yengamiz, qalbimizni yoriug'tutamiz  
Ha, ey yor, sen bilan birga bo'lish mening eng buyuk saodatim,  
Sen mening hamrohimsan, qalbinning nurisan, umur yo'ldoshimsan. [2;180-b]

“Go'ro'g'li” dostonida ayollar obrazni olaylik. Dostonda Go'ro'g'lining onasi Holbeka sahroga akasi va umir yo'ldoshini izlab ketadi va uning qornida olti oylik farzandi bo'ladi. U sahroda madordan qolib suvsizlika chidolmay yiqiladi, qarangda, hudoyim ayyolarni sevadi desak mubolag'a bo'lmaydi chunki Holbeka olti oylik farzandi ichida sahroda yolg'iz yiqiladi va suvsizlikdan ham qiynaladi, yana uni oldida hechkim yoq u faqatgina ollohg'a iltijo qilgan ohir bir chuqurga, ya'ni qabirga o'xshagan chuqurga yiqiladi, u yer ancha salqin bo'ladi. U Holbeka o'sha yerda uch oy yotadi. Hudoning ishini qaranglar, ollohi har bandasini sevadi. Holbeka qabir ichida o'ladi, lekin Go'ro'g'lini dunyoga keltiradi. Men maqolani boshida aytgandim har bir ayol o'zidan kechadi degandim, gapim ispodini topdi. Ayol o'zidan kechdi. Bu dostonda ayollarga etibor qaratilsa Holbekani jasorati keladi, ayol deganda hamma bir ojiza insonni tushunadi.

“Shirin bilan shakar” dostonida Kenjaoyim podshoning hotinlaridan biri bo'ladi. SHirin bilan SHakar ovga boradi va ular otasiga yomon ko'rinnaslik uchun quruq qaytmaylik deb, dev ko'ldagi g'ozni otadi, g'oz chopib yugurib Kenjaoyimning oldiga boradi. Ayollarda ham salbiy jihatlar ham bo'ladi, aynan shu obriz Kenjaoyimga nisbatan ishlatilgan. Men bu dostonda Kenjaoyimni yomolashim mumkin boshqalar uni o'zidan kelib chiqib talqin qiladi. Men o'zimdan kelib chiqib Kenjaoyimning ichida qandaydir bolalarga nisbatan g'araz ishlatilganda u bolalarni haqoratli so'zlar bilan haqorat qiladi. Masalan: “Yashamagur qurub ketgin, noming o'chkur” deb qarg'aydi.

Ha sho'ring qurg'urlar,  
Shul otamdan qolgan  
Bitu shu go'zim bore di.  
Oldim shu g'ozni boshinga,  
Balo qilurma. [3;188-b]

“SHahriyor” ba'zi epizotlarda ayollar orasida hasadgo'y, fitnagar yoki yolg'onchi obrazlari ham uchraydi. Ular qahramoning yo'lida to'siq bo'ladi, sirlarni oshkor qilib qo'yadi yoki nizolar keltirib chiqaradi. Dostonda nafsalo ayol ham bo'ladi, dostonda podshoning ayollaridan foydalangan kampir obrazi, ularni aqli yetmagan narsalariga kampirning aqli ko'proq rivojlanadida, kampir shuni uchun foydalanadi, ularni ishontiradi. U ayolning aqliga ham qoyil qolmasligini iloji yoq. Kampir ham podshodan foydalandi ham ayollaridan evaziga pul oldi, natijada ayol o'zining ishtimoyi hayotini rivojlantirib oldi. Ya'ni podshoning ayoli Gulsara ko'p azoblarni ko'radi, u ko'rgan azoblarni hozirgi ayollar chidashi qiyin, chunki Gulsara bolasing o'zidan bo'lgan zuriyoding hayvonday deb tarif beradi. U azobga ham chidaydi kundoshlaridan kelgan og'ir zarbalarga ham chidaydi.

Ha yana “Alpomish”ga qaytsak “Alpomish”da Barchinoy to'qson alpga rad javobini beradi. O'shanda ham Alpomish borgandan keyin ham rozilik bildirmaydi unga shart qoyadi.

Yana Barchining to'qson alpdan birini o'ldirishidir. Barchin Alpomishni kutadi kelganida ham men senga turmushga chiqaman demaydi. Unga va yana to'qson alpga ham shartini qo'yadi, mana Alpomish keldi deb u bilan billa ketmaydi.

Bu degani dostonlardagi ayollar o'z shartlarni qo'yishi mardligini, jasurligi, vadasiga turadigan ayollar timsoli Barchinda mujaassamlashgan. Barchin chin O'zbek ayoli desag mubolag'a bo'lmaydi.

Dostonlarda shunday hislatlar bor insonlar o'zgalarga ishonish bu ko'pincha ayollarda uchraydi. Masalan: "SHahriyor "dostonida kampir ayolning hammani gapiga ishontirishi unga shunchalar ahamiyat berilgan. Ayol deganda ko'z o'ngimizda nimalar keladi birinchi bo'lib ona keladi to'g'rimi . Ona degani eng ulug' zot chunki ona meni, sizni, bizni dunyoga keltirganda o'zidan kechadigan zot dir. Insoning butun umri davomida aytilgan narsalar doston bo'la oladi.

Hayotimizda birinchi bo'lib kimni ovozini eshitamiz, aynan onamizning ovozidan chiqan allani eshitamiz ,bu ham bitta doston hisoblandi . Endi yana qoshimcha qilsam "SHahriyor "dostoniga SHahriyorni onasi qanday holga tushgan deb o'ylaymiz SHahriyorning onasi unga birinchi bo'lib alla aytmagan . U farzandini hatoki yuzini ko'rmagan. Mana yan bitta ayolning matonati desak bo'ladi u shuncha zug'umga duch keldi. Boshqa ayol bo'lganda unga chidolmasa kerak edi. Menimcha men dostonidagi obraz haqida gapirsam men bu obrazga qarasam bu ayolni o'rnida bo'lsam chidolmasdim.CHunki bu ayolni qilgani matonati,sabri ,orzusi ,havasi o'z ichida bo'lgan .U farzandini kutgan bilgan kelishini hayolida o'tkazgan .Shu SHahriyor dostonida meni farzandimni ko'rsatinglar deganda unga aytgan so'zlarini eshitib o'zidan ketmaydi, o'zini mahkam tutub,shunday so'zlarni so'zlaydi, nahotki men shunday farzand tug'dimi, nahotki deydi, ha sen batbashara, husunsiz farzand ko'rding deydi .

Menimcha dostonlarda hamma obrazlarda ayollar matonati mehr -shavqatlari, eng asosiysi sabir matonatidir. Ayollar deganda men manshuni tushunaman. Yana bitta dostonda ayollarning jasurligi haqida so'z yuritilgan.

"Hondali" dostonida ayollar obraziga etibor bersak. U haqiqadan mardlik jasurlik timsolini yoritgan Dali dir. Dali o'zi bitta qiz farzandi hisoblanadi, uham qiz Bolani ham o'g'il Bolani harektri aks etirilgan. CHunki unga otasini yolg'iz qizi bo'lgani uchun ham uni mardlik jasurlik sanatini o'rganishni hohlaganlar. Dali hayotiga kelganda u Hasanhon janga yarador bo'lganida vaqtda Dali janga boradi va Hsanhonning yoqligini hechkim sezmasin deb. Janga boradi bu deganim Dali haqiqadan bu dostonidagi ayollarga tarif bermasak bo'lmaydi. CHunki o'zbek ayollarining sabri matonati haqida bayon berilgan. Men dostonlarda ko'p uncha ayollarga qaratilgan e'tibor o'zgacha takid qilmasag bo'lmaydi. Barchin, Holbeka, Bibihilol, Malika, Dalidan tashqari qancha ayollar dostoning mohiyatini ochib berishi shubhasiz. Barchin yonidagi kanizaglari ham dostonga qandaydir roli bo'lgan. Masalan Brchini yonida turgan kanizlaridan to'qson alpni biri Ko'kaman ey qiz qimizingdan ber deydi lekin u qimiz uzatmaydi chunki u bulan suhbat qurmaydi. O'shanda Barchin o'zini himoya qilolganda. CHunki Barching o'ziga ishonch, jasurlik, matonat degan narsalar unda mujjasamndir.

Dostonidagi ayollar obrazini yaratishda salbiy ijobiy mohiyatlarga qaraladi sizningcha dostonidagi ayollar obrazin olsak deganda aynan qaysi dosdondagi obrazni olgan bo'lardingiz.

Men doston o'qiganimda asosan ayollarning shijoatiga sadoqat, mehr, vafodor, mard degan narsalar ko'z o'ngimda gavdalanadi bu esa bizning ayollarning yurtimizning tarihi va ayollarning hayotimizdagi o'zni haqida judda mukkamal o'rgansak bo'ladi. Menuchun ayollar baxt timsoldier.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. "Oyina"/ Fan (Toshkent,2018) jildi-132-137 oraliq'ida
2. "Malika ayyor ilm -ziyo-zakovat (Toshkent 2019)180 b

3. Shirin bilan shakar (Toshken nashriyoti 2009)188b .
4. “Alpomish” -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 2009
5. Toshkent:Fan,1980.Qo’shjonov M. O’zbek xalq eposining badiiy xususiyatlari.- TOSHKENT :Fan 1983. Butiev S.Folklorshunoslik asoslari.-Toshkent:O’zbekiston,2012. “Oyina”/ Fan (Toshkent,2018)jildi- oralig’ida